



# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-yil  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

- 5 YAKUBOV SHUXRAT UMMATALIYEVICH**  
Oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinligining  
Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi:  
zarurat va istiqbollar
- 11 AZIZOV XUDOYQUL TOJIYEVICH**  
Ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslarini  
ro'yobga chiqarish – muhim vazifa
- 15 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
Xalqchil davlat qurish, davlat va jamiyat  
boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirishda  
fuqarolar ishtirokini kengaytirish masalalari
- 21 AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**  
Yangilangan bosh qomusimizda inson huquq  
va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida
- 27 SAFAROV DJAXONGIR ISMOILOVICH**  
Zamonaviy konstitutsiyaviy-huquqiy islohotlar  
sharoitida parlament yuqori palatasi faoliyatini  
isloh etish: asosiy tendensiyalar va rivojlanish  
istiqbollari
- 37 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Konstitutsiyaning to'g'ridan to'g'ri amal qilishi  
tushunchasining yuridik tahlili
- 43 JAHONOV SHOHRUH SHUHRAT O'G'LI**  
Jamoatchilik nazoratining muhim subyekti  
sifatida ommaviy axborot vositalarining  
konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 46 TOSHKANOV NURBEK BAHRIDDINOVICH**  
Intellectual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy  
himoyasi va uning ahamiyati
- 57 YULDOSHBEKOV AVAZBEK ALISHER O'G'LI**  
Fuqarolarning soliqqa oid konstitutsiyaviy  
burchlarini ta'minlashda soliq maslahati  
institutining o'rni va ahamiyati
- 63 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**  
Yangi O'zbekistonning energetika tizimini  
rivojlantirishning konstitutsiyaviy-huquqiy  
asoslari

- 70 DAVLATOVA GULIZA SHAVKAT QIZI**  
Halol raqobatni rivojlantirish va monopol faoliyatni cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari
- 75 SHODIYEVA IRISA SOATMUROD QIZI**  
Advokatlar maqomi e'tibor markazida
- 79 KAZAKOVA NOZIMA RUSTAM QIZI**  
The new constitution of Uzbekistan:  
A catalyst for democratic advancement

UDC: 347.77(045)(575.1)

# INTELLEKTUAL MULKNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY HIMOYASI VA UNING AHAMIYATI

**Toshkanov Nurbek Bahriddinovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

ORCID: 0009-0005-6060-3414

e-mail: toshkanovnurbek@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada intellektual mulk, uning konstitutsiyaviy muhofazasi va jahon konstitutsionalizmida bu boradagi rivojlanish tendensiyasi tahlil etilgan. Intellektual mulk huquqining rivojlanish dinamikasi tarixiga ham nazar tashlangan. Muallifning fikricha, davlat intellektual mulkning qonun bilan muhofaza etilishini konstitutsiya darajasida belgilar ekan, mazkur sohada bir qancha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Shu bilan birga, mavjud globallashuv jarayoni davlatlarning milliy qonunchiligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganligi yuzasidan fikrlar bildirilgan. Intellektual mulk huquqi sohasida ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishi talab qilinayotgan masalalar bo'yicha misollar keltirilgan. Xorijiy davlatlar konstitutsiyasi va qonunlarida intellektual mulkning ifoda etilishi usullari o'rganilgan. Huquqshunos olimlarning ushbu masala bo'yicha yondashuvlaridan misollar keltirilib, mualliflik pozitsiyasi bayon etilgan. Muallifning fikricha, bugungi postindustrial jamiyatda iqtisodiyot "intellektual iqtisodiyot" yoki "bilimlar iqtisodiyoti" deb atalayotgan ekan, har qanday zamonaviy davlat buning chaqiriqlarini his qila bilishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, "intellektual mulk" tushunchasining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topishini ushbu chaqiriqlarga munosib javob sifatida baholash mumkin. O'z navbatida, bu intellektual mulk – nomoddiy obyektidan moddiy daromad olishni rag'batlantirishga xizmat qilmasdan qolmaydi. Xususan, uni tijoratlashtirishga bo'lgan e'tiborning kuchayishiga ham zamin yaratishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, intellektual mulk, mutlaq huquqlar, ijod erkinligi, sanoat mulki, proprietar yondashuv, umumiy huquq.

## КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ

**Тошканов Нурбек Бахриддинович,**

базовый докторант Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье анализируется интеллектуальная собственность, её конституционная защита и тенденции развития в мировом конституционализме. Также рассмотрена история динамики развития прав интеллектуальной собственности. По мнению автора, поскольку государство устанавливает законом защиту интеллектуальной собственности на конституционном уровне, оно берёт на себя ряд обязательств в этой области. При этом высказываются мнения о том, как современный процесс глобализации влияет на национальное законодательство стран. Приведены примеры вопросов, которые необходимо изучить научно и теоретически в области права интеллектуальной собственности. Высказываются мнения о способах выражения интеллектуальной

собственности в конституциях и законах зарубежных стран. Приведены примеры подходов учёных-правоведов к данному вопросу и изложена позиция автора. По мнению автора, в связи с тем, что экономику в современном постиндустриальном обществе называют «интеллектуальной экономикой» или «экономикой знаний», любая современная страна должна уметь почувствовать свои вызовы. Исходя из этого, определение понятия «интеллектуальная собственность» в Конституции Республики Узбекистан можно оценить как достойный ответ на эти призывы. В свою очередь, интеллектуальная собственность служит стимулированию получения материального дохода от нематериального объекта. В частности, это может создать основания для повышенного внимания к её коммерциализации.

**Ключевые слова:** конституция, интеллектуальная собственность, исключительное право, творческая свобода, промышленная собственность, проприетарный подход, общее право.

## CONSTITUTIONAL AND LEGAL PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AND ITS IMPORTANCE

**Toshkanov Nurbek Bakhriddinovich,**  
PhD student of Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article analyzes intellectual property, its constitutional protection and development trends in this regard in the world constitutionalism. The history of the dynamics of intellectual property rights development is also considered. According to the author, the state, since it establishes the protection of intellectual property by law at the constitutional level, assumes a number of obligations in this area. At the same time, views were expressed on how the modern process of globalization affects the national legislation of countries. Examples of issues to be studied scientifically and theoretically in the field of intellectual property law were given. Ways of intellectual property expression in constitutions and laws of foreign countries have been studied. Examples of approaches of legal scholars to this issue are given and the author's position is stated. According to the author's opinion, since in modern post-industrial society the economy is called "intellectual economy" or "knowledge economy", any modern country should be able to feel the challenges of this. On this basis, the expression of the concept of "intellectual property" in the Constitution of the Republic of Uzbekistan can be assessed as a worthy response to these calls. In its turn, this intellectual property cannot but serve to stimulate tangible income from an intangible object. In particular, it can create grounds for increased attention to its commercialization.

**Keywords:** Constitution, intellectual property, absolute rights, creative freedom, industrial property, proprietary approach, common law

### Kirish

Intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish va tartibga solish sohasida huquqiy normalar mavjudligining ahamiyati intellektual mulkdan ishlab chiqarishda foydalanishning iqtisodiy ahamiyati ortib borayotganligi bilan ham, jamiyatning ma'naviy rivojlanishi sohasidagi ijtimoiy tarkibi o'zgarayotganligi bilan ham belgilanadi. Jamiyatning o'zgarish tendensiyalari barcha mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda intellektual faoliyat barqaror rivojlanishning asosiy elementi si-

fatida e'tirof etiladigan yangicha fikrlashni rivojlantirishdan iboratdir.

Intellektual mulk global ijtimoiy-huquqiy institut bo'lib, uning ma'nosini Jahon intellektual mulk tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, quyidagicha sharhlash mumkin: "Subyektlarning sanoat, ilmiy, adabiy va san'at sohasidagi intellektual faoliyati natijalariga egalik qilish huquqini qonunchilik darajasida mustahkamlash".

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotni faol rivojlantirish, fan-texnika taraqqiyoti nati-

jalarini iqtisodiy faoliyat va hayotning turli sohalariga joriy etish imkonini beruvchi kuch aynan intellektual mulkdir. Intellektual mulkni rivojlantirmasdan turib, yangi – postindustrial jamiyatga o'tish mumkin emas [1, 24-b.]. Bunda intellektual mulkni huquqiy tartibga solish bilan bog'liq muammolarni zudlik bilan hal etish zarur. Muammolarni hal etishga esa xalqaro standartlarga javob beradigan qonunchilik bazasi mavjud bo'lgandagina erishish mumkin. Intellektual mulkning huquqiy qoidalarini belgilashda yetakchi rol mamlakatning asosiy qonuni – Konstitutsiyaga tegishli. Shu sababdan ham O'zbekistonda o'tkazilgan konstitutsiyaviy islohotlarda bu o'z ifodasini topdi. Yangilangan Konstitutsiyaning 53-moddasiga intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinishiga doir norma kiritildi [2, 32-b.].

Shu bilan birga, intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari ilmiy doiralarda to'liq o'rganilmaganligi ushbu sohada davlat siyosatini yanada chuqurroq tadqiq etish va rivojlantirishni taqozo etmasdan qolmaydi. Bu esa, o'z navbatida, intellektual mulk muammosining dolzarbligi, shuningdek, mavjud huquqiy ziddiyatlarni kamaytirish uchun amaldagi milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati bilan bog'liq.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad intellektual mulkni tarmoqlararo soha sifatida milliy qonunchilikda tan olish va tartibga solishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini aniqlashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

mavjud nuqtayi nazarlarni tahlil qilish asosida intellektual mulk asoslarini ochib berish;

Konstitutsiyada intellektual mulkni hisobga olishning xalqaro amaliyotini ko'rib chiqish;

intellektual mulkning konstitutsiyaviy asoslarini tahlil qilish;

intellektual mulk huquqi va konstitutsiyaviy qoidalar o'rtasidagi munosabatlar muammolarini aniqlash;

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlarning intellektual mulk huquqiga ta'sirini ko'rib chiqish;

huquqiy va iqtisodiy tomondan intellektual mulk muammolari tendensiyalarini aniqlash.

Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida bir qator olimlarning (O. Oqyulov, Sh. Xo'jayev, N.D. Dmitriyev, P.Y. Yermoshin, T.L. Kalacheva, O.P. Popova, G. Usov, V.P. Avdeyeva) intellektual mulk huquqiga oid ilmiy qarashlari tahlil qilindi. Mazkur mavzuda yozilgan bir qancha maqola, dissertatsiya va monografiyalar o'rganildi.

#### **Material va metodlar**

Olib borilgan tahlil natijalariga asoslanib, intellektual mulk huquqini jahon konstitutsiyalarida aks ettirish usullari, uning samaradorligi va natijadorligi hamda intellektual mulkning konstitutsiyaviy muhofazasi masalalari ko'rib chiqildi. Ushbu masalalar bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ilgari surildi.

Mazkur tadqiqot obyekti tarmoqlararo huquq instituti sifatida intellektual mulk asoslari hisoblanadi. Tadqiqot predmeti intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish, tartibga solish va undan foydalanish masalalari bo'yicha yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar yig'indisidir.

Ishni yozish jarayonida tizimli tahlil, tarixiy tahlil, mantiqiy umumlashirish, shuningdek, qiyosiy huquq metodlaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqot natijalari**

O'zbekiston Respublikasining 1992-yildagi Konstitutsiyasi 42-moddasida har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlaniishi, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi belgilab qo'yildi [3].

Omonboy Oqyulovning ta'kidlashicha, bunda asosiy urg'u ilmiy va texnika-

viy ijodga berildi. Holbuki, xalqaro standartlar bo'yicha ilmiy, adabiy va badiiy ijod erkinligiga alohida urg'u qaratilgan [4, 56-57-b]. 2022-yil 4-iyunda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasining 21-bandiga ko'ra, 42-moddaning 1-qismidagi "ilmiy va texnikaviy" degan so'zlar "ilmiy, texnikaviy, badiiy" degan so'zlar bilan almashtirilishi nazarda tutildi [5].

Va nihoyat, ko'zda tutilgan o'zgartirishlar 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umum-xalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasida o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra:

"Har kimga ilmiy, texnikaviy va **badiiy** ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. **Intellectual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.**

Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi".

Bundan kelib chiqqan holda, bizning davlatimiz O'zbekiston hududida intellektual mulkni himoya qilish ijod erkinligi va shaxsning intellektual rivojlanishini kafolatlashning eng muhim asoslaridan biri ekanligini uzil-kesil tan olgan, deyishimiz mumkin.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida O'zbekiston intellektual mulk huquqi sohasidagi xalqaro shartnomalarda ham ishtirok etadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 25-dekabrda Butun jahon intellektual mulk tashkilotiga (WIPO) a'zo davlatlar qatoriga qo'shildi. Ayni shu sanadan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ta'sis etish konvensiyasini ratifikatsiya qilgan. Demakki, O'zbekiston xalqaro shartnomalarga rioya qilishi va intellektual faoliyat natijalari hamda ulardan kelib chiqadigan intellektual mulkni himoya qilishi kerak.

Deyarli har qanday zamonaviy davlatning qonunchiligi intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan huquqlar mavjudligi va himoyasini tan oladi. Intellektual faoliyatning huquqiy himoyasi faqat xalqaro shartnomalar va muayyan davlatning ichki qonunlarida nazarda tutilgan aqliy faoliyat natijalariga xosdir. Turli darajadagi qonunlar bilan himoyalangan intellektual faoliyat natijalari, shuningdek, ijodkorlar uchun mavjud bo'lgan ulardan foydalanish huquqlari yig'indisi "intellektual mulk" deb ataladigan kengroq institutni tashkil etadi.

Fan, adabiyot, san'at va boshqa sohalarda yaratilgan asarlar hajmida intellektual mulk obyektlari salmoqli ulushni tashkil etadi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan intellektual huquqlar tan olinadi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV bo'limi): mutlaq huquq (mulk); shaxsiy nomulkiy huquqlar (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda); boshqa huquqlar (kuzatish huquqi, foydalanish huquqi va boshqalar).

Intellektual mulkning huquqiy asoslari paydo bo'lish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, "sanoat mulki" atamasi XVII asrda birinchi marta qonunchilik darajasida tilga olingan. O'sha paytdayoq huquq tizimi har qanday ixtiro, ishlanma yoki kashfiyot uning yaratuvchisiga tegishli ekanligi va u o'z maqsadlariga erishish uchun ulardan foydalanishi, shuningdek, ularni uchinchi shaxslarning hujumidan himoya qilishi mumkinligini belgilab qo'ygan. Mualliflik huquqi ijodkorning ijodiga mulk huquqi sifatida ko'rilgan. Natijada muallif nafaqat o'z ijodini tasarruf etishi, balki undan tijorat maqsadlarida o'zining boyishi uchun moddiy obyektlar bilan bir qatorda foydalanishi mumkin bo'ldi. Shunday qilib, intellektual faoliyat natijalarini himoya qilishning huquqiy asoslarini shakllantirish yo'lidagi uzoq yo'l boshlandi [6, 15-b.].

XIX asr oxirida intellektual mulkka nisbatan ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi bo'lgan proprietar yondashuv (lotincha "proprie-

tas” – mulk)ga ko’ra, mualliflik huquqi mulk huquqining bir turi hisoblanadi. Lekin bugungi kunda bu yondashuv ilmiy jamoatchilik tomonidan butunlay rad etilgan.

Ikkinchisi mulkiy yondashuv bo’lib, mualliflik huquqini mulkiy xususiyatlar bilan tavsiflangan mutlaq huquq sifatida ko’radi, lekin ashyoviy huquq nuqtayi nazaridan intellektual faoliyat natijalarini hisobga olmaydi [7].

Shu tariqa mazkur davrda mualliflik huquqining sezilarli rivojlanishi sodir bo’ldi va uning asta-sekin “intellektual mulk” deb nomlangan kengroq huquq institutiga o’tish jarayoni boshlandi.

Global miqyosda intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash amalga oshirilganiga hali ko’p vaqt bo’lmadi. 1967-yil 14-iyulda Shvetsiya poytaxti Stokgolm shahrida Jahon intellektual mulk tashkilotini ta’sis etish to’g’risidagi konvensiya imzolandi. Mazkur konvensiya qoidalari keyinchalik ko’plab zamonaviy mamlakatlarning konstitutsiyaviy va fuqarolik qonunchiligi asoslariga kiritildi. Xususan, XX asrning 90-yillari boshida O’zbekiston Konstitutsiyasining 42-moddasida ham buni ko’rishimiz mumkin.

Intellektual mulkning zamonaviy tushunchasi, odatda, uch tomonlama ko’rib chiqiladi:

1) intellektual mulk – bu intellektual faoliyat natijasi bo’lgan nomoddiy ne’matlardan foydalanish, shuningdek, ulardan keyingi natijalarga doir shaxslar o’rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmuyidan iborat. Bunda intellektual mulkka turli subyektlar (intellektual faoliyatni yaratuvchilar, unga bo’lgan huquq egalari, tajovuzkorlar va boshqa manfaatdor shaxslar) o’rtasidagi munosabatlar sifatida qaraladi;

2) intellektual mulk – bu shaxslarning intellektual faoliyati natijalari, ya’ni bevosita yaratilgan obyektlar to’g’risidagi jamlanma tushuncha;

3) intellektual mulk jismoniy shaxslarning intellektual faoliyat obyektlari, shuningdek,

ularning intellektual mulkka egalik qilish va ularni tasarruf etish bo’yicha huquqlarni o’z ichiga oladi [8, 20-b.].

Intellektual mulkning alohida ahamiyati innovatsion iqtisodiyotni qurish zarurati bilan bog’liq bo’lib, unga inson kapitalini ko’paytirmasdan va biznes jarayonlarini takomillashtirishsiz erishib bo’lmaydi [9, 18-b.]. Intellektual mulkni himoya qilish darajasining yetarlicha emasligi sezilarli texnologik kechikishga olib kelishi mumkin.

Bunday vaziyatda yuridik fan intellektual mulk instituti faoliyatini ta’minlashi kerak. Intellektual mulk obyektlarini huquqiy himoya qilishning maqsadi texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy xarakterdagi innovatsion usullardan foydalangan holda, ishlab chiqarishni amalga oshirish va shu orqali tadbirkorlik faoliyatida afzalliklarga ega bo’lishdir.

Obyektga nisbatan intellektual mulk huquqini berish uchun unda quyidagi xususiyatlar mavjudligini aniqlash kerak: mutlaqlik (omma uchun ochiq foydalanishda bo’la olmaslik), begonalashtirish (shartnoma asosida bir shaxsdan boshqasiga o’tish qobiliyati), universallik (almashish qobiliyati) [10, 28-b.].

Qonunchilik nuqtayi nazaridan shaxsiy nomulkiy huquqlarni begonalashtirish mumkin emas. Biroq bu faktning mavjudligi ularning bozor qiymati yo’qligini anglatmaydi. Intellektual mulk huquqining ikki tomonlama xususiyati shundan iboratki, ularning bir qismi o’z xususiyatiga ko’ra (mualliflik huquqi, ismga bo’lgan huquq va h.k.) huquq egasidan begonalashtirilmaydi, boshqa qismi esa mutlaqlik xususiyatiga ega va aksariyat hollarda shaxslarga erkin o’tkazilishi mumkin, ya’ni mulkiy xususiyatni o’zida mujassam etadi [11, 56-b.].

Xalqaro amaliyotda XX asrning 60-yillari boshidan beri ishlab chiqilgan intellektual mulk institutiga oid asosiy qoidalar O’zbekistonda faqat 90-yillarda paydo bo’lgan. Bu, albatta, o’sha davrdagi iqtisodiy va siyosiy o’zgarishlar bilan bog’liq. Yangilangan Konstitutsiyada mamlakatimiz amaliyotida yan-

gi bo'lgan tushuncha mustahkamlab qo'yildi va intellektual mulk institutining mohiyati hamda mazmuni haqida ko'plab turli fikrlarni yuzaga keltirdi. O'z navbatida, buni so'nggi yillarda jamiyat va davlat hayotida intellektual mulkka bo'lgan munosabat o'zgarishining natijasi, deya baholash mumkin. Negaki intellektual mulkka moddiy daromad keltiruvchi boylik sifatida qarash bo'yicha jamiyatda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Albatta, Konstitutsiya intellektual mulk huquqining asosiy manbayi hisoblanadi. Lekin konstitutsiyaviy huquq juda umumiy bo'lib, ushbu huquq institutining o'ziga xos qoidalarini tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli mazkur huquq institutining konstitutsiyaviy ifoda etilishi masalasi yuzasidan turlicha fikrlar mavjud. Xususan, V.A. Dozorsev huquqiy muhitda intellektual mulk huquqining ma'lum bir turini tabaqalashtirilgan tartibga solish deyarli hech qanday e'tirozlarga olib kelmasligi, shu bilan birga, o'zaro munosabatlarni qurish sohasida umumlashtirilgan qoidalar yaratishda ifodalanuvchi intellektual mulk huquqining kelishilgan tizimi ilmiy hamjamiyat tomonidan jiddiy qarshilikka olib kelishini ta'kidlaydi [12, 5-b.].

Haqiqatan ham, bir taraf olimlar umumlashtirilgan tizimni yaratishga qarshilik bildirmaydi, boshqa tarafdagilar esa buning iloji yo'qligi va intellektual mulkka tabaqalashtirilgan yondashuv zarurligini aytadi. Masalan, N.D. Dmitriyev, P.Y. Yermoshinlarning ta'kidicha, ushbu yondashuv ko'proq asosladi, chunki intellektual mulk instituti kuchli dinamikaga bo'ysunadi. Bu esa tarixiy rivojlanish va intellektual mulk obyektlarining mohiyati haqidagi tushunchalarni kengaytirishni taqozo etadi. Umumlashtirilgan tizim mazkur kengaytirishlarni yaratish jarayonida shaxslar intellektual faoliyatining individual elementlarini hisobga olishga qodir emas [13, 88-b.].

Birinchi yondashuv tarafdorlari, jumladan, T.L. Kalacheva, O.P. Popovalarning

fikricha esa Konstitutsiya qonunchilikning butun tizimi, shu jumladan, intellektual mulk sohasi shakllanishi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi [14, 49-b.].

V.P. Avdeyeva intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy himoyasini "intellektual faoliyat sohasidagi huquq va erkinliklarni (majburiyatli shaxsga nisbatan) amalga oshirishning majburlov usuli" deya ta'riflaydi. Bunda u mazkur majburlov usuli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buzilgan huquqni tiklash uchun vakolatli organlar yoki shaxs tomonidan (o'zini himoya qilish maqsadida) mustaqil ravishda qo'llanilishi kerak, deb hisoblaydi [15, 58-b.].

Yana bir olim Y.A. Pavlov intellektual mulk sohasidagi shaxsiy nomulkiy va mutlaq huquqlarni konstitutsiyaviy-huquqiy himoya qilish usullari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

- huquq buzilishigacha bo'lgan vaziyatni tiklash;
- jinoyatchilikka chek qo'yish;
- davlat va xususiy manfaatlar muvozanatini ta'minlash.

Shuningdek, ushbu usullarni amalga oshirish uchun bosh huquqiy asos Konstitutsiya bo'la olishi mumkinligini ta'kidlaydi [16, 66-b.].

O'zbek huquqshunos olimlaridan Sh. Xo'jayevning fikricha, intellektual mulkka bo'lgan huquqni Konstitutsiyada belgilash bizga intellektual mulkning oddiy mulk qatori tan olinishiga, uni daromad keltiradigan manba sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu bilim, innovatsiya va ijodiy natijalarga investitsiyalarni jalb qilishda ham yordam beradi.

Konstitutsiyada intellektual mulk huquqining tan olinishi va himoya qilinishi ilmiy-ijodiy faoliyatni rag'batlantirishga turtki bo'ladi. Davlat nafaqat intellektual mulk egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini tan oladi, balki himoya qiladi. Shu munosabat bilan muallif yoki huquq egasi yangi intellektual mulk obyektlarini yaratishga qiziqadi, mahalliy tadbirkorlar o'z brendini yaratishga manfaatdor bo'ladi.

O'z navbatida, intellektual mulk huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati ilm-fan, adabiyot va san'at taraqqiyotining poydevori hisoblanadi, chunki bu soha vakillarining huquqlari davlatning asosiy qonuni darajasida himoya qilinadi [17].

Bizningcha, intellektual mulk to'g'risidagi asosiy huquqiy kafolatlarning Konstitutsiyada belgilanishi har jihatdan to'g'ri bo'lgan. Negaki Konstitutsiya huquq sohalari, shu jumladan, intellektual mulk huquqi rivojining umumiy va asosiy yo'nalishlarini belgi-

lasa-da, uning ichki rivojlanishi, turli institutlar, subinstitutlarga bo'linishi va qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartibga solinishini cheklamaydi.

Xalqaro amaliyotga qaraydigan bo'lsak, "intellektual mulk" atamasi turli davlatlarning atigi 38 ta konstitutsiyasida, shu jumladan, O'zbekistonda (1-jadvalda) to'g'ridan-to'g'ri mavjud bo'lsa, aksariyat mamlakatlar (31) konstitutsiyalari faqat mutlaq huquqlarni hisobga oladi. Bu esa mualliflik va patent huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi (2-jadval).

### 1-jadval

#### Turli mamlakatlar konstitutsiyalarida "intellektual mulk" atamasining mavjudligi [18]

T/r	Davlat	Konstitutsiya moddasi	Davlat	Konstitutsiya moddasi	Davlat	Konstitutsiya moddasi
1.	Ozarbayjon	30, 94	Angola	42	Burkina-Faso	28
2.	Boliviya	30, 41, 42, 100, 381	Venesuela	98	Vyetnam	62
3.	Gruziya	23	Dominikan Respublikasi	52	Misr	69
4.	Qirg'iziston	49	Keniya	40, 2112, 2112, 2405, 2691	Kolumbiya	61, 150
5.	Kongo	46	Ekvador	322, 422	Madagaskar	26
6.	Mozambik	94	Moldova	33	Myanma	372
7.	Nikaragua	125	BAA	121	Papua-Yangi Gvineya	290
8.	Paragvay	110	Peru	29	Rossiya	44, 71
9.	Salvador	103	San-Tome va Prinsipi	45	Slovakiya	43
10.	Sloveniya	60	Sudan	23	Tojikiston	40
11.	Sharqiy Timor	60	Tunis	41	Uganda	189
12.	Ukraina	54	Filippin	XIV	Chili	19

### 2-jadval

#### Turli mamlakatlar konstitutsiyalarida "mutlaq huquqlar" tushunchasining mustahkamlanishi [18]

T/r	Davlat	Konstitutsiya moddasi	Davlat	Konstitutsiya moddasi	Davlat	Konstitutsiya moddasi
1.	Avstriya	10.1	Afg'oniston	47	Jazoir	38
2.	Albaniya	582	Bolgariya	54.3	Braziliya	5
3.	Burundi	58	Vengriya	122	Germaniya	73.1

4.	Gvatemala	42	Gonduras	108	Kanada	91§23
5.	Kabo-Verde	53	Kosta-Rika	47	Efiopiya	77.5
6.	XXR	47	Latviya	113	Lesoto	35.2
7.	Lixtenshteyn	34.2	Malayziya	18.2	Meksika	28.89
8.	Mikroneziya	9	Mo'g'uliston	16	Nigeriya	2511
9.	Palau	9	Ruminiya	1352	AQSh	1-bo'lim 8-paragraf
10.	Turkmaniston	39	Shvetsiya	16	Estoniya	39

Yuqoridagi jadvallar hali ko'pgina mamlakatlar konstitutsiyalarida intellektual mulk yoki mutlaq huquqlar haqida umuman so'z bormaganligini anglatadi. Bu esa boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu masalaning ko'rib chiqilishi bilan bog'liq holatdir. Bunda anglo-sakson huquq tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarga xos bo'lgan mazkur huquqiy tizimning doimiy moslashuvchanligidan kelib chiqiladigan bo'lsa, bu yondashuv o'rinli bo'lishi mumkin. Shunisi e'tiborliki, deyarli barcha konstitutsiyaviy hujjatlarda fuqaroligidan qat'i nazar, har qanday shaxsning ijodiy, ilmiy va intellektual faoliyati sohasidagi huquq va erkinliklari qayd etilgan [19, 22-b].

Shu bilan birga, hozirgi kunda butun dunyoda inson huquqlari, birinchi navbatda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlar konstitutsiyaviy darajaga ko'tarilmoqda. Bu esa ularni himoya qilish zaruriyatining xalqaro darajada e'tirof etilishi bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston tajribasida ham intellektual, ijodiy va madaniy faoliyat sohasidagi inson huquqlari asosiy huquq va erkinliklar sifatida tasniflanadi (ikkinchi bo'lim – inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, 53-modda) va shu asosda mazkur erkinlikka oid huquqlarni buzganlik uchun Jinoyat kodeksi 149-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan.

Umuman olganda, yuqoridagi faktlar bilimlar iqtisodiyotiga o'tish va milliy huquq tizimlarini global formatga moslashtirishning global tendensiyalari mavjudligini tas-

diqlaydi. Munosabatlarning barcha turlarini bilimlar iqtisodiyoti tomonga o'zgartirishga asoslangan yangi postindustrial jamiyatni shakllantirish zarurati amaldagi huquqiy tizimlarni o'zgartirish va keyingi konstitutsiyaviy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi vazifa hisoblanadi. Buni bugungi kunda qit'a huquq tizimi va umumiy huquq (common law) mamlakatlarida intellektual mulkni konstitutsiyaviy tartibga solish masalalarida jiddiy farqlar mavjud emasligi ham tasdiqlaydi.

So'nggi yillarda intellektual huquq sohasidagi O'zbekiston qonunchiligi ham sezilarli darajada yangilandi. Uning nazariy asoslarini takomillashtirish yuzasidan olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mazkur sohada bir qator masalalar o'rtaga chiqmoqda. Sun'iy intellektga bo'lgan yondashuvning o'zgarayotganligi, madaniy qaroqchilikning global ko'rinishga kelganligi, O'zbekistonda 2022-yilda birgina mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasidagi huquqbuzarlik holatlarining 31 %i internet tarmog'ida sodir etilgani, kiberjinoyatchilikning rivojlanayotgani, axloqqa zid intellektual mulk obyektlari qarovining oshayotganligi, ularni cheklashning imkoni kamayayotganligi kabi yechimini kutayotgan ayrim muammolar mavjudligini istisno etib bo'lmaydi.

Bundan tashqari, sanoat mulki obyektlariga nisbatan patent huquqlarining buzilishi yuzasidan global korporatsiyalar o'rtasidagi shov-shuvli sud ishlariga tobora ko'proq guvoh bo'lmoqdamiz.

Ayni paytda intellektual mulkning qonun bilan muhofaza etilishining konstitutsiyaviy ifodasi nafaqat huquqni qo'llash subyektlari, balki qonun ijodkori – davlat uchun ham bir qator majburiyatlar keltirib chiqaradi. Qonunchilikni doimiy takomillashtirib, zamon talablariga moslashtirib borish shular jumlasidandir.

Intellektual mulkning iqtisodiy asoslarini hisobga olgan holda, yana shuni ta'kidlash kerakki, u ilmiy ishlanmalar, tadqiqotlar natijalaridan foydalanishga bir vaqtning o'zida ham imkon beradi, ham cheklaydi. O'z navbatida, bu milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga ta'sir qiladi. Nomukammal qonunchilik patent bazasini kengaytirishga imkon bermaydi va ilmiy-texnik taraqqiyotni sekinlashtiradi. Mazkur holatda davlat organlari tomonidan innovatsion ishlanmalar sohasida intellektual mulkni himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda rasmiyatchilikning yuqori darajasini hisobga olgan holda, aniq shaxslar uchun intellektual faoliyat natijalarini tan olish mexanizmlarini soddalashtirish oqilona bo'lar edi. Bunday yondashuv iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish sifatini oshiradi va intellektual rivojlanishga turtki beradi [20, 81-b.].

Biz ham mazkur fikrlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ayni paytda bu borada qadamlar allaqachon tashlangan. Masalan, 2017-yil 14-sentabrdagi O'RBQ-446-son O'zbekiston Respublikasi qonuni bilan patent berish muddati seleksiya yutug'i ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 6 oydan 10 ish kuni o'tgan-gacha qisqartirildi [21].

Shu bilan bir qatorda, davlat va huquq rivojlanishining zamonaviy global tendensiyalari huquq institutlarini bir-biriga yaqinlashtirish va kolliziyalarni kamaytirish maqsadida konstitutsiyaviy qadriyatlarni universalashtirish bilan bog'liq bo'lib bormoqda. Intellektual mulk huquqi ham bundan mustasno emas.

## Xulosalar

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuridik fan sohasidagi keyingi tendensiyalar insonning roli va uning aqliy faoliyatining intellektual mahsulini yanada global o'rganish zarurati bilan bog'liq. Bu intellektual faoliyat natijalarini o'zlashtirish va himoya qilishning adolatli usullarini ishlab chiqishga yordam beradi. Konstitutsiyaviy nuqtayi nazardan intellektual mulkka ijodkor insonning o'z intellektual faoliyatining barcha mumkin bo'lgan natijalari, shu jumladan, amaldagi qonun hujjatlarida hali o'z aksini topmagan natijalariga bo'lgan mutlaq huquqi sifatida qaralishi kerak.

Xalqaro xususiy huquqni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida batafsilroq tushunish shaxslar intellektual mehnatining ahamiyatini oshiradi, bu esa ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalari rivojiga turtki beradi. Zamonaviy shaxsni shakllantirish va hayotni yanada farovon qilish sharoitida aynan inson dunyoning barqaror rivojlanishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Uning huquqlari, shu jumladan, intellektual huquqlarini himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi [22, 141-b.].

Konstitutsiyaviy normalar rivojlanishining hozirgi bosqichida intellektual mulk institutini tartibga solish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- 1) intellektual mulkka bo'lgan subyektiv huquqni asosiy shaxsiy huquq sifatida tan olish;
- 2) intellektual va ijodiy faoliyat natijalarini muhofaza va himoya qilish;
- 3) intellektual mulkka doir munosabatlarni yanada jonlantirish, rag'batlantirish, kafolatlash va boshqa shakllarda qo'llab-quvvatlash.

Bunday holatda davlat quyidagi majburiyatlarga ega:

intellektual faoliyat natijalarini himoya qilish;

inson va fuqaroning ijod, tadbirkorlik, mulk, mehnat erkinligi, axborot olish sohasi-

dagi huquq va erkinliklarini taqdim etish va ta'minlash.

Bizningcha, yuqoridagi amalga oshirish shakllari va davlatning bu boradagi majburiyatlaridan kelib chiqqan holda, intellektual mulkning konstitutsiyaviy-huquqiy himoyasining yanada adolatli bo'lishini ta'minlashning eng oqilona yondashuvi intellektual faoliyat natijalarini huquqiy tartibga solishga doir O'zbekiston

qonunchiligini jahonning eng rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida takomillashtirish va bu borada yagona davlat siyosatini izchil davom ettirish hisoblanaadi. Intellektual mulk munosabatlari va ularni himoya qilishning rivojlanishini qiyosiy o'rganish sohasida kelgusida ilmiy tadqiqotlar olib borishni samarali deb hisoblash mumkin. Mazkur ilmiy tadqiqotlar oldiga qo'yiladigan savollar esa talaygina.

## REFERENCES

1. Kommerzializatsiya intellektual'noj sobstvennosti / V. I. Muhopad. – M.: Magistr: INFRA=M, 2010. – 512 c.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son.
4. Okyulov Omonboy. Ijodkor muallifning ish beruvchi yoki buyurtmachi bilan o'zaro munosabatlarida mualliflik huquqlari ustuvorligini huquqiy ta'minlash masalalari. *Yurisprudensiya*, 2023-yil 1-son. 53-62-betlar. doi: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.3.1./EJIG1142>
5. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi. "Xalq so'zi", 2023-yil 15-mart.
6. Kurbanov R.A., Shvedkova O.V., Beljalova A.M. Istorija stanovlenija i razvitija prava promyshlennoj sobstvennosti // *Jekonomika. Pravo. Obshhestvo*. 2015. № 4. S. 13–23.
7. Laptev G.A. Vozniknovenie i jevoljucija instituta promyshlennoj sobstvennosti. 2012 [Jelektronnyj resurs]. URL: [https://superinf.ru/view\\_helpstud.php?id=3198](https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=3198)
8. Gacolaeva A.H. Nekotorye voprosy opredelenija konstitucionnogo prava intellektual'noj sobstvennosti // *Vestnik IKIAT*. 2013. № 2 (27).
9. Degtereva V., Zaytsev A., Dmitriev N. The development of the mathematical apparatus for calculation of the intellectual rent industrial enterprises to achieve innovation leadership // VI International Conference «Social, Economic, and Academic Leadership» (ICSEAL 2019). Czech Republic, Prague, 2019.
10. Polavskaja N.V. Intellektual'naja sobstvennost' kak ob#ekt jekonomicheskix otnoshenij // *Kreativnaja jekonomika*. 2014. № 8 (92). S. 22–32
11. Prudentov R.V. Metod pravovogo regulirovanija: voprosy teorii i konstitucionnogo prava. M.: Statut, 2019. 192 c.
12. Dozorcev V.A. Ponjatje iskljuchitel'nogo prava // *Juridicheskij mir*. 2000. № 3–6. S. 4–9.
13. N.D. Dmitriev, P.Ju. Ermoshin. Konstitucionno-pravovye osnovy intellektual'noj sobstvennosti // *Vestnik Nizhegorodskogo universiteta im. N.I. Lobachevskogo*, 2021, № 1, s. 85-93
14. Intellektual'naja sobstvennost' pod ohranoj zakona : monografija / T. L. Kalacheva, O. P. Popova. – Habarovsk : Izd-vo Tihookean. gos. un-ta, 2018. – 210 s.
15. Avdeeva V. P. Problemy konstitucionno-pravovogo obespechenija svobody tvorcestva i ohrany intellektual'noj sobstvennosti v Rossijskoj Federacii: dis. ... kand. jurid. nauk. Tjumen', 2009.

16. Pavlov E. A. Konstitucionno-pravovaja ohrana i zashhita imushhestvennyh prav i interesov predprinimatelja. Analiz osnovnyh ponjatij // Vestnik Moskovskogo un-ta MVD Rossii. 2013. № 3. S. 65–67.

17. O'zbekistonda intellektual mulk himoyasi va uni tijoratlashtirish. Shohjahon Xo'jayev bilan intervyu // URL: <https://kun.uz/news/2022/08/13/ozbekistonda-intellektual-mulk-himoyasi-va-uni-tijoratlashtirish-shohjahon-xojayev-bilan-intervyu>

18. Usov G.V. Konstitucionno-pravovaja zashhita intellektual'noj sobstvennosti v Rossii i zarubezhnyh stranah (sravnitel'no-pravovoe issledovanie): Dis. ... kand. jurid. nauk. M., 2015. 201 s.

19. Volos A.A. Sovremennye tendencii razvitija predstavlenij o principah grazhdanskogo prava // Grazhdanskoe pravo. 2016. № 2. S. 20–23.

20. Holgersson M., Aaboen L. A literature review of intellectual property management in technology transfer offices: From appropriation to utilization // Technology in Society. 2019. № 59.

21. Seleksiya yutug'i uchun patent 10 kunda rasmiylashtiriladi // URL: [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/selekciya\\_yutugi\\_uchun\\_patent\\_10\\_kunda\\_rasmiylashtiriladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/selekciya_yutugi_uchun_patent_10_kunda_rasmiylashtiriladi)

22. Sudakova N.E. Osmyslenie mezhdunarodnogo chastnogo prava kak sociokul'turnogo fenomena v kontekste stanovlenija sovremennoj lichnosti // Vyzovy global'nogo mira. Vestnik IMTP. 2014. № 1. S. 140–144.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2023-YIL  
MAXSUS SON

*Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi  
Konstitutsiyasiga bag'ishlanadi*

VOLUME 3 / SPECIAL ISSUE / 2023

SPECIAL ISSUE DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.3.SI

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ergashev Ikrom**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, dotsent, yuridik fanlar doktori

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** M. Sharifova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 20.12.2023-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: .

TDYU tipografiyasida chop etildi.